

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatda ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning (YAHM) hajmi 36 199,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yil yanvar-sentabrga nisbatan o'sish sur'ati 106,4 % ga teng bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Xorazm viloyatining qo'shgan hissasi 3,6 % ga yetdi.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida YAHM deflyator indeksi 111,6 % ni tashkil qildi.

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM)–milliy hisoblar asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududda joylashgan rezident-institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.

YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutloq o'sish sur'atlari, % da
2024- yil yanvar-sentabr oylarida



Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YAHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qurilish sohasida -108,1 % (umumiy ulushning 8,5 %), jami xizmatlar - 107,7 % (umumiy ulushning 38,9 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 104,1 % (umumiy ulushning 35,9 %), sanoat – 108,1 % (umumiy ulushning 16,7 %) ni tashkil qildi.



YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQUARISH

YAHMning o‘shida tarmoqlarning qo‘shgan hissasi

(jamiga nisbatan, % da)










YAHM o‘shishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i 1,5 f.p. (2023- yil yanvar-sentabrda – 2,2 f.p.), sanoat tarmog‘i – 1,2 f.p. (2023- yil yanvar-sentabrda – 1,0 f.p.), qurilish tarmog‘i – 0,7 f.p. (2023- yil yanvar-sentabrda – 0,2 f.p.) va xizmat ko‘rsatish sohasi – 2,9 f.p. (2023- yil yanvar-sentabrda – 1,6 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘shishi hisobiga YAHMdagi ulushi 0,1 f.p. (2023- yil yanvar-sentabrda – 0,3 f.p.)ni tashkil qildi .



**Yanvar-sentabr oylarida viloyat yalpi hududiy
mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi**



	<i>mlrd. so'm</i>		<i>2023- yil yanvar-sentabrga nisbatan foiz hisobida</i>
	<i>2023- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2024- yil yanvar-sentabr</i>	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	30 492,6	36 199,7	106,4
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	29 822,0	35 537,9	106,4
 mahsulotlarga sof soliqlar	670,6	661,8	106,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	29 822,0	35 537,9	106,4
 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	11 381,3	12 750,7	104,1
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	7 203,4	8 936,5	108,1
 sanoat	4 607,5	5 922,3	108,1
 qurilish	2 595,9	3 014,2	108,1
Xizmatlar	11 237,3	13 850,7	107,7
 savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3 893,4	4 891,1	112,2
 tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 465,5	1 939,5	112,5
 boshqa xizmat tarmoqlari	5 878,4	7 020,1	103,5

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning yalpi hududiy mahsulotining o'sish sur'atiga asosiy ta'sir qurilish sohasida -108,1 % (umumiy ulushning 8,5 %), sanoat – 108,1 % (umumiy ulushning 16,7 %), jami xizmatlar - 107,7 % (umumiy ulushning 38,9 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 104,1 % (umumiy ulushning 35,9 %) ni tashkil qildi.

YAHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 72,0 %i kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to'g'ri keldi, bu ko'rsatkich 2023- yil yanvar-sentabrda 72,2 % ni tashkil qilgan.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi, % da (jamiga nisbatan foizda)

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasining ulushi 35,9 % ni tashkil qildi va 2023- yil yanvar-sentabrga (38,2 %) nisbatan 2,3 punktga kamaydi, sanoatning (qurilishni qo'shgan holda) ulushi 25,2 % ni tashkil qilib, 2023 – yil yanvar-sentabrga (24,2 %) nisbatan 1,0 punktga ko'pdir. Xizmatlar sohasi ulushi 38,9 % ni tashkil qildi va o'tgan yilga (37,6 %) nisbatan 1,3 punktga ko'pdir.



● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

Yalpi hududiy mahsulotda kichik biznes ulushi

(yanvar-sentabr oylari, jamiga nisbatan ulushi)

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 72,0 % ni (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida – 72,2 %), hajmi 25 593,6 mlrd. so‘mni (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida – 21 532,5 mlrd. so‘m) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan kamayishi yirik korxonalar ulushining o‘shishi bilan bog‘liq.


Yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan % da)




	Hajmi, mlrd.so‘m	Ulushi, % da
2023- yil	21 532,5	72,2 %
2024- yil	25 593,6	72,0 %

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMni shakllantirishda Xorazm viloyatining qo‘shgan hisssasi 3,6 % ni tashkil etib, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan tengdir.


Yalpi ichki mahsulotda Xorazm viloyatining ulushi, % da



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 18 025,0 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 4,4 % o‘shishga erishildi.



Xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan % da)




2024- yil yanvar-sentabr oylarida yalpi hududiy mahsulot hajmida xizmatlar ulushi 38,9 % (2023- yil yanvar-sentabr oylarida 37,6 %) ni tashkil qildi.

Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YAHM tarkibidagi ulushi 13,8 % ni (2023- yil yanvar-sentabr oylarida 13,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari – 5,5 % ni (2023- yil yanvar-sentabr oylarida 4,9 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar– 19,6 % ni (2023-yil yanvar-sentabr oylarida 19,6 %) tashkil etdi.

**O'zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyatining
asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari
(2024- yil yanvar-sentabr)**

	<i>O'zbekiston Respublikasi</i>		<i>Xorazm viloyati</i>		<i>Respublikada Xorazm viloyatining ulushi, % da</i>	
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>yanvar-sentabr 2023 - y.</i>	<i>yanvar-sentabr 2024- y.</i>
Yalpi ichki mahsulot (hududiy) mahsulot	1 015 331,8	106,6	36 199,7	106,4	3,6	3,6
Sanoat	629 171,5	107,0	21 734,8	108,1	3,3	3,2
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	323 878,0	103,1	21 616,3	104,1	6,6	6,6
Investitsiyalar	343 085,9	131,0	8 865,1	112,6	3,0	2,6
Qurilish ishlari	167 101,2	109,1	7 095,3	108,1	4,2	3,7
Chakana tovar aylanmasi	259 327,4	109,2	10 167,0	108,3	4,0	3,9
Xizmatlar, jami	564 777,7	112,8	19 164,5	112,6	3,4	2,7
Eksport (mln. AQSh doll.)	19 773,8	111,5	280,8	124,0	1,3	1,3
Import (mln. AQSh doll.)	28 432,4	105,2	336,9	77,4	1,6	1,1

**Xorazm viloyatining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining
Respublikadagi ulushi, %da**



Xorazm viloyatining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining O'zbekiston Respublikasidagi ulushi quyidagichadir. Yalpi ichki mahsulotda Xorazm viloyatining ulushi- 3,6 %, sanoatda ulushi-3,5 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida ulushi – 6,7 %, investitsiyada ulushi- 2,6 %, qurilish ishlarida ulushi- 4,2 %, chakana tovar aylanmasida ulushi- 3,9 %, xizmatlarda ulushi -3,4 %, eksportda ulushi – 1,4 %, importda ulushi- 1,2 % ni tashkil qildi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida Xorazm viloyati yalpi hududiy mahsuloti 36 199,7 mlrd. soʻmni, respublika yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 3,6 foizni tashkil qilib, oʻsish surʻati oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 106,4 foizni tashkil qildi.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 21 734,8 mlrd. soʻmni (respublikada sanoat mahsulotlarining 3,5 foizini) tashkil etib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan oʻsish surʻati 108,1 foizni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulotlari ishlab chiqarilgan (koʻrsatilgan xizmatlar) umumiy hajmi 21 616,3 mlrd. soʻmni (respublikada qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulotlarining ulushi 6,7 foiz) tashkil etib, 2023- yilning shu davriga nisbatan oʻsish surʻati 104,1 foizga etdi.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatning iqtisodiy va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 8 865,1 mlrd. soʻm asosiy kapitalga investitsiyalar kiritilib, oʻsish surʻati 2023- yilning shu davriga nisbatan 112,6 foizni (respublikadagi ulushi 2,6 foiz) tashkil etdi.

2024-yil yanvar-sentabr oylarida 7 095,3 mlrd. soʻmlik (respublikadagi ulushi 4,2 foiz) qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 108,1 foizni tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 10 167,0 mlrd. soʻmni (respublikadagi ulushi 3,9 foiz), oʻsish surʻati 2023- yilning shu davriga nisbatan 108,3 foizni tashkil qildi.

2024- yil yanvar- sentabr oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha hajmi 19 164,5 mlrd. soʻmni, (respublikadagi ulushi 3,4 foizni) tashkil qildi va 2023-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan oʻsish 112,6 foizni tashkil etdi.


Tashqi savdo aylanmasi 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida 617,6 mln. AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,3 foizni), oʻsish surʻati 93,3 foizni, jumladan: eksport – 280,8 mln. AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,4 foizni), oʻsish surʻati 124,0 foizni, import– 336,9 mln. AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,2 foizni), oʻsish surʻati 77,4 foizni tashkil etdi.

YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQUARISH

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,8 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 35,9 % ni, sanoat tarmog‘i 16,7 % ni, qurilish 8,5 % ni va xizmatlar sohasi 38,9 % ni tashkil qildi.

2024-yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)



2024-yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

